

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



HUDUDIY SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA

Raximov Alisher Ibragimovich

Urganch Ranch texnologiya universiteti katta o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-2188-6831>

rahimovalisher@umail.uz

Xotamov Ibodullo Sadulloyevich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, professor

<https://orcid.org/0000-0001-9141-6500>

i.khotamov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a21

Annotatsiya

Maqolada Xorazm viloyati eksport strukturasi o‘zgarish dinamikasi hamda eksportni oshirish bo‘yicha viloyat salohiyati, O‘zbekiston Respublikasi eksportida o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, viloyat eksportini 10 yillik dinamikasi tahlil qilinib, eksport o‘shirishga ta’sir qilgan mahsulotlar ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda viloyat eksporti hajmini, salohiyatini oshirish imkoniyatlari, yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Eksport, tashqi savdo, sanoat, iqtisodiyot, mahsulotlar, eksport strukturasi, xizmatlar.

ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНАЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ: НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Рахимов Алишер Ибрагимович

Ургенчский технологический Университет Ранч старший преподаватель

Хатамов Ибодулло Садуллоевич

заведующий кафедрой «Зеленой» экономики и устойчивого бизнеса Ташкентского государственного экономического университета, кандидат экономических наук, профессор

Аннотация

В статье анализируется динамика изменения структуры экспорта Хорезмской области, потенциал региона по увеличению экспорта, его роль в экспорте Республики Узбекистан. Также была проанализирована 10-летняя динамика экспорта региона, а также рассмотрено влияние продукции, повлиявшей на рост экспорта. По результатам анализа обозначены возможности и направления увеличения объема и потенциала регионального экспорта.

Ключевые слова. Экспорт, внешняя торговля, промышленность, экономика, продукция, структура экспорта, услуги.

**INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF REGIONAL INDUSTRIAL PRODUCTS: THE CASE OF
KHOREZM REGION**

Rakhimov Alisher Ibrahimovich

University of Urganch Ranch technology, senior teacher

Khatamov Ibodullo Sadulloyevich

Head of the Department of "Green" economy and sustainable business of Tashkent State University of Economics, candidate of economic sciences, professor

Abstract

The article analyzes the dynamics of changes in the export structure of the Khorezm region, the region's potential for increasing exports, and its role in the export of the Republic of Uzbekistan. Moreover, the 1 decade dynamics of the region's exports are analyzed, and the impact of products that affected export growth is considered. Based on the results of the analysis, the opportunities and directions for increasing the volume and potential of regional exports have been indicated.

Key words. Export, foreign trade, industry, economy, products, export structure, services.

Kirish

Eksport - davlat iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti bir biriga bog'liq, ya'ni ma'lum darajada mamlakatlar o'rtasida o'zaro savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan. Mamlakatlarning iqtisodiyotida nafaqat tarmoqlarning rivojlanishi, balki tashqi savdo faoliyatining ham o'rni katta.

Globalashuv jarayonining dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'siri tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda har qanday mamlakat, jumladan, O'zbekiston uchun ham to'g'ri o'ylangan tashqi savdo siyosatini yuritgan holda jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini mustahkamlab borishi mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport salohiyatini ko'tarish va tashqi bozorlarda ularning mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvor yunalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida eksport salohiyatini oshirish bu orqali iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida bir qator qaror va farmonlar asosida sanoat mahsulotlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida tayyor mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Xususan, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi [1], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [2], 2023-yil 21-noyabrdagi PF-198-sonli "Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi [3] Prezident farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktyabrdagi "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ3978-son qarori [4] shular jumlasidandir.

Mamalkatimizda olib borilayotgan tashqi savdo siyosati orqali hududlar eksport saoliyatini ko'tarish, jahon bozorida tashqi savdo hajmini kengaytirish natijasida aholi bandigini ta'minlash hamda turmush darajasini oshirishga qaratilgandir.

Shu bilan birga eksportni oshirishda sanoat mahsulotlari eksporti ulushini ko'paytirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali oziq-ovqat mahsulotlari

ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, sohaga yangi texnologiyalarni jalb qilgan holda jahon standartlariga javob beradigan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududning mavjud imkoniyatlaridan foydalanishda logistika tizimini joriy qilish, qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirish uchun ilmiy izlanishlar olib borish va yangi takliflarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Eksportni oshirish orqali iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sirini qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish bir qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib olib borilgan.

E.A.Xoshimov tomonidan davlatning valyuta siyosatining eksportni amalga oshirishdagi nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan [5]. M.J.Uzoqov, J.M.Juraboyevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda to‘qimachilik mahsulotlari eksporti samaradorligini oshirishda marketing xizmarlarini tashkil etish tadqiq etilgan [6].

N. Petrakov, G. Shagalovlar Rossiya eksportini Davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash borasida tadqiqotlar olib borib dunyo bozorida mahsulotlar baholarining o‘zqarib turishi hamda siyosiy sabablarni inobatga olgan holda o‘z takliflarini bergnalar. Bu borada ular yuqori texnologiyalar asosida qayta ishlanadigan mahsulotlar eksportini amalga oshirish orqali Rossiya eksportini oshirishga et‘ibor qaratganlar [7].

S.A.Zasarinin tomonidan xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy sharoitida mahalliy sanoat eksportini rivojlantirishning asosiy muammolari ko‘rib chiqilgan. Mahalliy xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning sanoat eksportini kengaytirish masalalari tadqiq etilib, mahalliy sanoat eksportini rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishlari taklif etilgan [8].

Yibing Ding, Yuhang Zhuang, Liyunpeng Zhang, Gongyan Yanglar tomonidan mamalaktning sanoat loyihalarni amalga oshirish siyosatini eksport mahsulotlari potensialini o‘zgarishiga ta‘siri tadqiq qilingan. 2009-2017 yillarda hukumat tomonidan tastiqqlangan mikroloyihalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqot natijasida, Xitoyning sanoat sohasidagi mikroloyihalarni amalga oshirilishi oqibatida eksport mahsulotlar potentsiali o‘zgargan hamda eksport hajmi oshgan [9].

Xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eksport faoliyatining turli xil jihatlari va muammolarini o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, davlatlar tomonidan olib boriladigan valyuta siyosatining eksport hajmiga ta‘siri, eksport samaradorligini osirishda marketing xizmatlarini joriy qilishga, dunyo bozoriga chiqishda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish masalariga, mahalliy sanoat korxonalarining eksportini oshirish masalalariga, hukumat tomonidan amalga oshirilgan sanoat loyihalarning mamlakat sanoat mahsulotlari eksporti strukturasi oz‘gairishiga va hajmining oshishiga ta‘siri tadqiq qilingan.

Xorazm viloyati sanoat mahsulorlari eksport salohiyatini oshirishda eksport faoliyati bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali viloyatda mavjud imkoniyatlar va dunyo bozoriga chiqish imkoniyatlari o‘qrganilib takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. Bunda viloyat eksportini mavjud holati tahlil qilinib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda va eksportda hali foydalanilishi lozim bo‘lgan imkoniyatlar ko‘rib chiqildi hamda tahliliy natijalar asosida xulosalar olindi.

Tahlil va natijalar

Xorazm viloyatida viloyatda 2021-yil yanvar-dekabr oylarida 231,2 mln. AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirilgan bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 36,4 foizga oshgan yoki 61,7 mln AQSH dollariga ko‘paygan.

Viloyat jami eksportning asosiy qismini paxta (jami eksport hajmining 43,1%), mevalar (15,3%), sabzavotlar (13%), xizmatlar (7,9%) trikotaj kiyim va kiyim aksessuarlari (4,0%), ipak (2,8%), boshqa kiyim va kiyim aksessuarlari (1,6%), boshqa tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, ishlab chiqarilgan kiyim (1,2%) va boshqa tur mahsulotlar (9,5%) tashkil etadi.

2021-yil viloyat eksporti O‘zbekiston Respublikasi jami eksportining 1,39 foizini tashkil qilgan. Jumladan sabzavotlar eksporti respublika eksportining 7,4 foizini, mevalar 6,9 foizini, qog‘oz va karton mahsulotlari 13,5 foizini, ipak 8,3 foizni, paxta 5,17 foizni, trikotaj kiyim va kiyim aksessuarlari 1,6 foizni, to‘qilgan kiyim va kiyim aksessuarlari 5,4 foizni, boshqa tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, ishlab chiqarilgan kiyim 2,3 foizni va xizmatlar 0,72 foizni tashkil etgan.

O‘tgan 10 yillikni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2021-yilda eksport hajmi 2011-yilga nisbatan 112,2 foizni tashkil qilgan.


Eksport hajmining 12,2 foizga oshishida mevalar 17,0 foizni ta‘minlagan bo‘lsa, sabzavotlar 14,5 foizni, trikotaj kiyim va aksessuarlar, boshqa kiyim va aksessuarlar, tayyor to‘qimachilik mahsulotlar jami 7,6 foizni, xizmatlar 5 foizni va boshqalar 9,2 foizni tashkil etgan.

2011-yilda eksport hajmining 94,1 foiz ulushi paxta eksporti hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib paxtaning ulushi 43,1 foizgacha pasaygan. Biroq, trikotaj kiyim va kiyim aksessuarlari tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, ishlab chiqarilgan kiyim mahsulotlari eksporti oshgan. Buning asosiy sabalaridan birisi kiyim va kiyim va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish oshganligidir. Eksport strukturasi tarkibiy o‘zgarishlari hisobiga paxta eksporti ta‘siri esa aksincha -45,7 foiz kamayishga ta‘sir etgan.

Viloyat eksporti strukturasi trikotaj kiyim va aksessuarlar, boshqa kiyim va aksessuarlar, tayyor to‘qimachilik mahsulotlar eksporti oshganligini ko‘rish mumkin. Bu asosan yangi tashkil kilingan eksportyor korxonalar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, yangi tashkil etilgan korxonalar tomonidan 8,278,8 ming AQSH dollari miqdorida (*jami trikotaj kiyimlar va tayyor kiyim kechaklar, tayyor to‘qimachilik mahsulotlar eksportidagi ulushi 48,8 %*) trikotaj kiyim va aksessuarlar, boshqa kiyim va aksessuarlar, tayyor to‘qimachilik mahsulotlar eksportni amalga oshirgan.


Ma‘lumot uchun: Xorazm viloyatida 139 ta korxonalar tomonidan 40 945 mln. so‘mlik kiyim va kiyim aksessuarlari mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Xorazm viloyatida 2016-yilgacha paxta, eksport hajmining asosiy ulushini egalab kelgan. 2016-yilga kelib jami eksportda paxta eksporti 78 foizgacha tushgan. Bunga ta‘sir qiluvchi omillardan tayyor kiyim kechak mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda eksportining oshishidir.



1-rasm. Kiyim va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksporti hajmi. [16]

2011-yilda 212 mlrd. so'mlik kiyim va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgani holda atigi 40,3 ming AQSH dollari miqorida trikotaj mahsulotlar eksport qilingan. 2021-yilga kelib, 3151,4 mlrd. so'mlik kiyim va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, 5760,5 ming AQSH dollari miqdorida kiyim va to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingan.



2-rasm. 2011-2021-yillarda Xorazm viloyati mevalar va qovun po'sti hamda sabzavotlar va ba'zi yesa bo'ladigan ildiz va tub ekinlar eksporti. [16]

Mamlakatimizda eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilishi, valyutani liberallashtirilishi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etilishi va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilinishi natijasida meva va sabzavot mahsulotlari eksporti hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-iyundagi "Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3077-sonli qarori bilan turli narx imtiyozlari, mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlarini olish jarayoni vaqtini qisqartirish kabi imtiyozlar berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoniga ko'ra xorijiy valyutani erkin sotib olish, mustaqil tasarruf etish

huquqi belgilandi. Bu esa eksportchi korxonalariga olingan daromaddan yanada samarali foydalanish imkonini berdi.

Shu bilan birga jahonning globallashuvi natijasida an’anaviy sohalar bilan birga yangi yo’nalishlarni paydo bo’lishiga olib keldi. Xususan, internet tarmoqlarining rivojlanishi natijasida internet tarmoqlari orqali dasturiy mahsulotlarini eksporti, frilanserlik xizmati kabi yo’nalishlar payda bo’la boshladi. Buning natijasida birinchidan, ushbu yo’nalishda mamlakatni ushbu yo’nalishda ishga solinmagan salohiyatini oshirish, ikkinchidan internet tarmoqlari orqali ko’rsatilayotgan xizmatlar hamjini statistika organlari tomonidan rasmiy statistika ma’lumotlarida aks ettirish vazifasi yuzaa keladi.

Xulosa va takliflar

Xorazm viloyatida eksportni rag’batlantiruvchi omillar bilan birga eksport qilish uchun ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud.

Viloyat geografik joylashuvi, qazilma tabiiy resurslarning yo’qligi eksport qilish imkoniyatini cheklasada, inson resurslari salohiyati orqali eksportni ko’paytirish imkoniyatlari mavjud.

1. Transport logistika tizimini rivojlantirish orqali sanot mahsulotlar eksportini oshirish
2. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarda xalqaro standartlarni joriy etib, ISO sertifikatlashtirishni jadallashtirish.
3. Meva va sabzavotlardan tayyor eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko’paytirish orqali eksport hajmini oshirish.

Ma’lumot uchun: Xorazm viloyatida 2021-yilda mevani qayta ishlash darajasi 19 foizni, sabzavotlarni qayta ishlash darajasi 5,1 foizni tashkil qilgan.

4. Viloyatda kadrlar salohiyatidan foydalangan holda dasturiy mahsulotlar eksportini oshirish.

Ma’lumot uchun: 2021-yilda faqat bitta korxonadan 74,8 ming AQSH dollari dasturiy mahsulot eksport qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni.
2. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni.
3. 2023-yil 21-noyabrdagi PF-198-son “Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktyabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ3978-son Qarori.
5. Xoshimov E.A. Valyuta siyosatining eksportni rivojlantirishdagi rag’batlantiruvchi rolini oshirish yo’llari. T.: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal. 2020. 409-416.
6. Uzoqov M.J., Juraboyev J.M. To’qimachilik korxonalari eksport salohiyatini kuchaytirishda marketing xizmatlaridan foydalanish. T.: Yangi O’zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rni va rivojlanish omillari. 2023. 562-568 b.
7. Петраков Н., Шагалов Г. О государственной поддержке российского экспорта. М.: ЦЕМИ РАН, 2016. 289с.
8. Зацаринин С.А. Развитие экспорта отечественной промышленной продукции. «Экономика и бизнес»- 2012- с.61-63
9. Yibing Ding, Yuhang Zhuang, Liyunpeng Zhang, Gongyan Yang, Industrial policy and potential for export upgrading: Evidence from government-approved projects in China. Economic Modelling. 7 February 2024.
10. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari